

**SHARQ FALSAFASIDA OILA, AYOL VA JAMIYATNING  
O‘ZARO BOG‘LIQLIGI**

***Muxtarov Utkirjon Mutalibjonovich***

*Andijon davlat pedagogika instituti falsafa fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.*

***Norimonova Gulmira Ulug‘bek qizi***

*Andijon davlat pedagogika instituti milliy g‘oya, ma’naviyat  
asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharq falsafasining asosiy tamoyillari nuqtai nazaridan oila, ayol va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi haqida so‘z boradi. Sharq tafakkuri tarixiy-falsafiy merosida oila-ijtimoiy hayotning tayanchi, ayol –ma’naviy barqarorlik va tarbiyaning asosi hisoblanadi. Maqolada qadimgi Sharq mutafakkirlarining, jumladan, Konfutsiy, Farobi, Ibn Sino, Bahouddin Naqshbandiyarning g‘oyalari asosida oilaning axloqiy, tarbiyaviy va ijtimoiy vazifalari ochib beriladi. Ayolning jamiyatdagi o‘rni va unga qilingan hurmat-ehtirom darajasi orqali jamiyatning ma’naviy yetukligi belgilanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, barqaror jamiyat qurishda oilaviy qadriyatlar va ayolning faol ishtirokini hal qiluvchi omil ekanligi ilmiy asosda asoslab beriladi, albatta. Ushbu maqolada oila va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni tushunishda Sharq falsafasi beradigan nazariy asoslarini chuqur anglashga yordam beradi deb o‘layman. Sharq falsafasidagi qadriyatlar asosida, bugungi kundagi barqaror ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish hamda gender tengligi, ma’naviy tarbiya va ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish singari masalalarga nazariy jihatdan yondashilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Sharq falsafasi, oila, jamiyat, ijtimoiy institut, axloqiy qadriyatlar, Farobi, Ibn Sino, ma’naviyat, gender, ijtimoiy barqarorlik, an’anaviy qarashlar, falsafiy tahlil.

**Аннотация:** В статье рассматривается вопрос взаимоотношений семьи, женщины и общества с точки зрения основных принципов восточной философии. В историко-философском наследии восточной мысли семья является опорой общественной жизни, а женщина — основой духовной устойчивости и воспитания. В статье раскрываются нравственные, воспитательные и социальные функции семьи на основе идей древневосточных мыслителей, в том числе Конфуция, аль-Фараби, Ибн Сины, Бахауддина Накшбанди. Духовная зрелость общества определяется местом женщины в обществе и уровнем оказываемого ей уважения и почета. По результатам исследования научно доказано, что семейные ценности и активное участие женщин являются решающими факторами в построении устойчивого общества.

Я считаю, что эта статья поможет вам глубже понять теоретические основы, которые дает восточная философия для понимания баланса между семьей и обществом. Основываясь на ценностях восточной философии, он теоретически подходит к таким вопросам, как формирование устойчивых социальных отношений в современном мире, а также укрепление гендерного равенства, духовного воспитания и социальной солидарности.

**Ключевые слова:** философия Шарка, семья, общество, институт, социальный, этические качества, Фараби, Ибн Сина, духовность, пол, социальная стабильность, традиционные взгляды, философский анализ.

**Annotation:** In this article, this article is about the issue of interdependence between family, female and society in terms of the basic principles of the Eastern philosophy. In the historical and philosophical heritage of the Orientality, the base of family-social life is the basis of family stability and upbringing. The article discovers the moral, educational and social responsibilities of the family based on the ideas of the ancient Eastern conduct, including the ideas of the ancient lawful, farewell, Ibn Sino, Bahauddin Naqshbandi. The spiritual maturity of the community is the spiritual maturity of the woman in society and the reverence given in it. According to the study, a sustainable society is based on the development of family values and a decisive factor of the active participation of the woman. I think this article will help you deeply understand the theoretical foundations of Eastern philosophy in understanding the balance between the family and society. Based on the values in the philosophy of Eastern, the issues such as the formation of today's sustainable social relations and gender equality, strengthening spiritual education and social solidarity shall be considered.

**Keywords:** Oriental philosophy, family, society, social institution, ethical, Ibn Sina, spirituality, gender, social stability, traditional views, philosophical analysis.

**Kirish:** Sharq falsafasi ming yillar davomida inson va jamiyat, axloq va ma’naviyat, oila va shaxslararo munosabatlari masalalarini chuqr o’rgan holda o’ziga xos tamoyillar va qadriyatlar tizimini shakllantirgan ulkan bir tafakkur maktabi hisoblanadi. Ushbu falsafiy an’analarda oila ijtimoiy tuzumning asosiy poydevori bo‘lib, uning barqarorligi va ma’naviy mukammalligi jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, ayol shaxsiga nisbatan bo‘lgan yondashuvlar uning onalik, balki tarbiyachi, ma’naviyat targ‘ibotchisi va jamiyatni axloqan boyituvchi kuch sifatidagi roli doimo alohida e’tiborda bo‘lib kelmoqda. Sharq mutafakkirlarining asarlarida oila-insoniylik, axloqiy yetuklik va ijtimoiy tartibotning asosidir. Al-Farobi, Ibn Sino, Jaloliddin Rumi, Bahouddin Naqshbandiy singari yetuk mutafakkirlar oilani inson kamoloti sari yetaklovchi muhit sifatida baholab kelganlar. Ayniqsa, ayolning oiladagi va jamiyatdagi o‘rni haqida bildirilgan fikrlar bugungi

davrda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan deb o‘yayman. Ayolga bo‘lgan e’tibor va munosabat darajasi orqali jamiyatning axloqiy yetukligi va taraqqiy qilganlik darajasini belgilashi mumkin bo‘ladi degan qarashlar Sharq mutafakkirlarining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘ladi. Ushbu maqolada Sharq falsafiy merosi asosida oila, ayol va jamiyat o‘rtasidagi uzviy aloqalar tahlil qilinadi va bu bog‘liqlikning axloqiy, ijtimoiy va madaniy qatlamlarini ochib berishga harakat qilinadi. XXI asrga kelib gender tengligi, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi va oilaning ma’naviy barqarorligini ta’minalash singari masalalar jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari sifatida sharq falsafasida ilgari surilgan qadriyatlarning muhim ekanligini yana bir marotaba tasdiqlaydi deb o‘yayman.

**Metod:** Ushbu maqolada Sharq falsafasida oila, ayol va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish orqali kompleks yondashuvlar qo‘llaniladi. Ushbu tadqiqot quyidagi asosiy metodlarga tayanadi:

1. Tarixiy-falsafiy tahlil metodi: Sharq falsafasida oilaviy qadriyatlar va ayolning ijtimoiy o‘rnini o‘rganish jarayonida tarixiy-falsafiy yondashuv asosida qadimgi manbalar, shu jumladan, Konfutsiy, Farobiy, Ibn Sino, Al-G‘azoliy va Navoiy singari mutafakkirlarning asarlari haqida so‘z boradi. Ushbu metod orqali qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi hamda zamonaviy talqin nuqtai nazaridan asosiy falsafiy g‘oyalarni aniqlab beradi.

2. Solishtirma metodi: Sharq falsafasida oila va ayolning o‘mi G‘arb falsafasi bilan solishtirilib tahlil qilinadi, albatta. Bular orqali ikki turli sivilizatsiya vakillari orasidagi asosiy farqlar va o‘xhashliklar aniqlanib, Sharqi jamiyatlarda oilaviy tuzilma va ayolning jamiyatdagi o‘rni qanday talqin qilinishini ko‘rsatadi.

3. Sotsiologik yondashuv: Ushbu mavzuning ijtimoiy ahamiyatini aniqlash maqsadida sotsiologik yondashuv asosida Sharq jamiyatlarida, xususan, O‘zbekiston singari an‘anaviy qadriyatlar ustuvor bo‘lgan hududlarda oila va ayol mavqeiga oid mavjud statistik ma’lumotlar hamda rasmiy hujjatlar va zamonaviy tadqiqotlar o‘raniladi.

4. Normativ-falsafiy tahlil: Sharq falsafasida oila va ayolga nisbatan ilgari surilgan axloqiy va diniy hamda ijtimoiy normalar tahlil qilinadi. Ushbu metod orqali qadimiy risolalar va axloqiy ta’limotlarda aytilgan ideal model bugungi kunda jamiyat bilan qanday uyg‘unlashishi o‘rganiladi.

5. Madaniy-falsafiy tahlil: Sharq tamaddunlarida oila va ayol timsollarini ko‘plab adabiy, diniy va falsafiy matnlarda estetik va ma’naviy kontekstda ifodalanadi. Tadqiqotda bu obrazlar- masalan, “mukammal ayol”, “vafodor ona”, “oqila xotin”, singari timsollar tahlil qilinadi va ularning madaniy-falsafiy jihatlarini ochib beradi.

**Natijalar:** Ushbu tadqiqot davomida Sharq falsafasi doirasida oila, ayol va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni falsafiy va tarixiy asoslarda chuqur tahlil qilish orqali quyidagi muhim ilmiy natijalarga erishildi:

1. Sharq falsafasida oila-ijtimoiy uyg‘unlikning tayanchi sifatida talqin qilib kelinadi. Oila qadim Sharq mutafakkirlari asarlarida faqatgina ijtimoiy institut emas, aksincha, jamiyatning axloqiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi muqaddas tizim sifatida qaraladi. Masalan, Konfutsiy, Farobi, Al-G‘azoliy singari mutafakkirlar oilani insoniy kamolotga olib boruvchi asosiy muhit sifatida qarashganlar.

2. Ayol-jamiyatning axloqiy-ruhiy barqarorligini saqlovchi metaforik markaz sifatida namoyon bo‘ladi. Sharq falsafasida ayol faqat ijtimoiy subyekt sifatida emas, balki ruhiy yetuklik, sabr-toqat, mehr-oqibat va baraka ramzi sifatida qarashadi. Ayniqsa, islom olamida islomiy-falsafiy tafakkurda ayolning onalik, ma’naviy tarbiya va oilaviy barqarorlikdagi o‘rni juda yuksak baholanadi. Bular orqali jamiyatdagi qadriyatlar uzluksizligi ,asosan, ayol orqaligina ta’minlanishi haqidagi xulosaga kelinadi.

3. Oila, ayol va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘zaro ta’sirli xarakterga egadir. Sharq falsafasida bu kabi bog‘liqlik oila orqali jamiyat axloqiy asoslanadi va jamiyat esa oilaning barqarorligini ta’minlovchi tashqi sharoitlarni yaratib beradi. Ayol esa bu ikki tuzilmaning ruhiy va madaniy ko‘prigi bo‘lib xizmat qiladi deb o‘ylayman.

4. Sharq falsafasida ayolning qadriyatlar tizimidagi o‘rni gender neytral emas, balki genderga asoslangan roller bilan belgilanadi. Ayolga nisbatan mukammal qarashlar bilan bir qatorda, tarixiy-falsafiy manbalarda ularning vazifalari ko‘proq an’anaviy gender rollari asosida belgilangani aniqlandi. Ammo, bu roller pastki ijtimoiy maqom belgisi sifatida emas, balki jamiyatning barqarorligini ta’minlovchi asosiy vazifa sifatida qaraladi.

**Tahlil:** Sharq falsafasi-bu qadimiy dunyoqarash, hayotga, inson va jamiyatga oid murakkab tafakkur tizimi hisoblanadi. Sharq falsafasida ijtimoiy hayotning barqaror rivojlanishi hamda insoniy fazilatlarning oilada shakllanishiga bog‘liq holda tushunish kerak bo‘ladi. Bu kabi qarashlar, ayniqsa, Konfutsiy ta’limotida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Konfutsiy g‘oyalariga ko‘ra, tartibli jamiyat-tartibli oilalardan boshlanadi. Insonparvarlik tamoyili asosida har bir shaxs, ayniqsa, ayolning ijtimoiy hamda axloqiy hayotidagi o‘rnini belgilaydi. Shuningdek, ayol va erkak rollari aniq belgilangan bo‘lib, ularning bir-birini to‘ldiruvchi deb qaraladi. Islom falsafasida bu kabi masalaga chuqur e’tibor qaratiladi. Qu’ron va Hadislari asosida rivojlangan islomiy tafakkurda oila-inson tarbiyasining asosi bo‘lib, ayol-bu tarbiyaning bosh ijrochisi hisoblanadi. Al-G‘azoliy o‘zining “Ihyo ulum ad-din” asarida ayollarni ilimli, axloqi go‘zal va ma’sulyatli bo‘lishga da’vat qilgan va ularning farzand tarbiyasidagi rolini ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida belgilagan. Bu joyda ayol-onalik vazifasini ado qiluvchi, balki jamiyatning ma’naviy sog‘lomligini belgilovchi vosita hisoblanadi. Mening fikrimcha, Sharq falsafasi nuqtai nazaridan, agar oila ichidagi munosabatlar sog‘lom bo‘lsa, bu jamiyatda yuksak axloqiy muhitning shakllanishiga olib keladi, albatta. Buning e’tiborli jihat shundaki, oiladagi har bir a’zo-erkak va ayol

hamda farzandlar o‘z vazifasini anglab yetganidagina jamiyat barqarorligi ta’minlanishi mumkin. Bugungi kunga kelib, bu tamoyillar O‘zbekiston singari bir qator Sharq mamlakatlarida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurgan. Sharq falsafasining oila, ayol va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka oid g‘oyalari bugungi kundagi global muammolar-ijtimoiy beqarorlik, axloqiy tanazzul va ma’naviy inqirozga qarshi eng samarali g‘oyaviy-ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Sharq falsafasi oilani mikrojamiyat deb e’tirof qiladi va oiladagi ijtimoiy rollar, munosabatlar va qadriyatlar keyinchalik mikrojamiyatga, ya’ni davlat va xalq hayotiga ko‘chadi, albatta. Oilaviy muhitda shakllangan insoniy fazilatlar- mehr-oqibat, bir – biriga nisbatan hurmat, sabe-toqat, o‘zaro ma’sulyat jamiyatda ham mustahkam ijtimoiy aloqalar paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi. Sharq falsafasida oila- jamiyatning asosiy tizimi, ayol esa uning ruhiy axloqiy ustuni sifatida qaraladi. Bu kabi qarashlar bugungi globallashuv davriga kelib ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot sari intilayotgan jamyatlar uchun muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlari o‘zining mashhur asarlarida jamiyatdagi axloqiy tangliklarni , asosan, oiladagi tarbiya nuqsonlari bilan izohlashadi. Farobiyning fikriga ko‘ra, “Fozil jamiyat”ni qurish uchun har bir shaxs mukammal axloqiy tarbiyaga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bu tarbiya esa onaning mehribonligi va oqilonaligi orqaligina shakllanib boradi. Farobiy “yahshi jamiyat”da erkak va ayolning bir-birini to‘ldiruvchi va tengdosh ijtimoiy subyektlar sifatida ishtirok qilishini aytgan. Bulardan tashqari, qadimiy hind falsafasida- Manu qonunlari va Upanishatlarda ayolni ilohiylikka yaqinlashtiruvchi vosita sifatida tasvirlash an’anasi mavjud hisoblanadi. Bu kabi qarashlar ayolga faqat jismoniy balki, ruhiy va ma’naviy kuch sifatida qarashimiz mumkin bo‘ladi. Sharq tafakkurida ayolning ijtimoiy faoliyatda ishtirok qilishi hech qachon inkor qilinmagan, albatta. Shuningdek, o‘rta asrlarda yashab ijod qilgan Zaynab binti al-Komol, Robiya al-Adaviya singari musulmon olimlar, ayolning diniy, ilmiy va madaniy hayotda faol bo‘la olishini amalda isbotlagan olimlar hisoblanadi. Bu kabi misollar Sharq jamiyatlarida ayol faolligining tarixan mavjud bo‘lganini isbotlaydi va ko‘rsatadi deb o‘ylayman.

Shu birga, O‘zbekiston misolida olib qaralganda, davlat siyosatida oilani mustahkamlash, ayollar faolligini oshirish, gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan islohotlar orqali bevosita Sharqona qadriyatlarning zamonaviy ko‘rinishi sifatida qaraladi. Bunga misol qilib, “Oila kodeksi”, “Ayollar daftari”tizimi, “Xotin-qizlar qo‘mitasi” faoliyati orqali ayolning oiladagi maqomini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy va ijtimoiy mexanizmlar mavjud.

**Xulosa:** Ushbu maqoladan xulosa shuki, bugungi kunda Sharq falsafasidagi qadriyatlar zamonaviy sotsiologik va gender tadqiqotlari bilan uyg‘unlashib bormoqda. Ayollarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va

sog‘lom bo‘lgan ijtimoiy muhutni ta’minlash orqali Sharqona tafakkurning zamonaviy talqini sifatida qayta tiklanish boshlanmoqda. Shunday qilib, oila, ayol va jamiyat o‘rtasidagi uzviylik an’anaviy qadriyat, balki ijtimoiy barqarorlikning ilmiy asoslangan strategiyasi sifatida qaraladi. Bu singari yondashuvlar kelajak avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalash va ijtimoiy taraqqiyotning bardavomligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Al-Farobi.Fozil odamlar ahli haqida.Toshkent.1993;
2. Ibn Sino.Axloqiy risolalar.Toshkent:Fan.1980;
3. Al-G‘azoliy.Ihyo ulum ad-din.2005;
4. Konfutsiy.Lun Yuy-Suhbatlar va mulohazalar.Toshkent:O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.2008;
5. Normurodova,M.Sharq falsafasida oila institutining shakllanishi va qadriyatlar tizimi.2020;
6. Tursunov,B.Ayol va jamiyat:Sharq tafakkuri asosida zamonaviy yondashuvlar.2021;
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.“Oila institutini mustahkamlash va ayollar faolligini oshirish strategiyasi”.Respublika axborot portali.2022;
8. Asqarova,G.Oila va gebder muammolari:tarix va bugun.Toshkent:Ijtimoiy fanlar nashriyoti.2018;
9. <https://arxiv.uz>;
10. <https://newjournal.org>;